

PEDAGOGIK MAHORAT

MS
2022

ISSN 2181-6833



9 772181 683301



Jo‘rabek YARASHEV, Xurshid AXROROV. Musiqa ta’limi o‘qitish metodikasini takomillashtirishda aktdan foydalanish imkoniyatlari (sibelius dasturi misolida).....	235
M. SAMIYEVA. “Buxoro ijrochilik uslubi” - o‘smir-o‘quvchilar axloqiy sifatlarini rivojlantirish omili sifatida.....	237
O‘. AVLIYOQULOV. Musiqa madaniyati ta’limida musiqiy savodxonlik faoliyatidan foydalanish imkoniyatlari	239
Davron RO‘ZIYEV, Shavkat QODIROV, Dilovar QODIROVA. Sharq allomalarining inson ma’naviyatida musiqaning o‘rni haqidagi qarashlari	241
Dilorom SAIDOVA, Davron RO‘ZIYEV. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy ko‘nikmalarini shakllantirish	244
I.M.RAXMANOVA, Davron RO‘ZIYEV. Musiqa ta’limida pedagogik texnologiyalarning ahamiyati.....	248
Munisa JO‘RAYEVA, Davron RO‘ZIYEV. O‘zbekistonda fortepiano ijrochiligi san’ati	251
Hojibuv RAHMONOVA, Sanoqul DO‘STOV. Musiqaning inson ruhiyatiga ta’siri haqidagi sharq mutafakkirlarining fikrlari	254
Sitora XAMDAMOVA. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining g‘oyaviy badiiy xususiyatlari	259
Islom AXTAMOV. Maktab musiqi madaniyati darslarida maqom namunalarini o‘rgatishni metodik takomillashtirish tajribalaridan	261
Ulug‘bek MIRSHAYEV, Dilara MIRSHAYEVA. Boshlangich sinf o‘quvchilarida musiqiy - ritmik harakatlarni shakllantirish	263
Dilshoda RUSTAMOVA, F.G. Nurullayev. Hozirgi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida musiqi tarbiyasi	265
Nasiba HAZRATOVA, F.G. Nurullayev. Musiqa darslari orqali o‘quvchi yoshlarning ongini va milliy tafakkurni o‘stirish omillari	268
Nodira NURULLAEVA, Sanoqul DO‘STOV. Yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda xalq qo‘shiqlarining ahamiyati va tutgan o‘rni	271
Nozima NURULLAYEVA. Yoshlarni tarbiyalashda musiqiy tasavvurlarning xususiyatlari.....	273
Nigora NURULLAYEVA. Buxoro folklor qo‘shiqlari xalqning ijodiy ma’suli sifatida	275
Boburshox NURULLAYEV, Sanoqul DO‘STOV. Folklor qo‘shiqlarini tanlab olishga qo‘yiladigan metodik talablar	278
Mehriniso NURULLAEVA. Yoshlarda milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiyaning ahamiyati	281
O‘ktam IBODOV. Musiqa darslarida o‘quvchilarni musiqaga bo‘lgan ijodkorlik xususiyatlarini shakllantirish	283
Jo‘rabek YARASHEV, Dilnavoz MURATOVA. O‘rta umumta’lim maktablarida o‘quvchilarning ovozini tarbiyalash va rivojlantirish usullari	286
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. Buxoro shashmaqomi ustuni	289
Dinora UMARQULOVA, F.G NURULLAYEV. O‘zbek katta ashulasining jahon miqyosidagi o‘rni.....	292
Shuhrat G‘ULOMOV. Tarixiy janrda O‘zbekiston tasviriy san’ati rivoji	294
Farrux NURULLAYEV, Nodira NURULLAYEVA. O‘zbek xalq qo‘shiqlarining uzluksiz ta’limdagi tutgan o‘rni va tarbiyaviy ahamiyati.....	297

Dinora UMARQULOVA

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi I bosqich magistri
"Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti sohibasi

F.G NURULLAYEV.

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'ZBEK KATTA ASHULASINING JAHON MIQYOSIDAGI O'RNI

Maqolada O'zbek katta ashulasi va uning hozirda dunyo miqyosidagi o'rni haqida fikr yuritilgan. Xalqimizning nomoddiy madaniy merosi, o'tmishi, buguni va kelajagi, ma'naviy hayotga bo'lgan qiziqish va intilishlarini hamda tarbiyaviy ahamiyatini namoyon etishda muhim vosita bo'lib xizmat qilishi haqida so'z borgan. Endilikda milliy musiqa meroslaridan o'quv tarbiya jarayonida to'laqonli foydalanish imkoniyati paydo bo'ldi. Demak, bugungi kunda donishmandlarning musiqiy-ma'rifiy g'oyalari, milliy musiqa ta'lim-tarbiyasi tizimini tarkib toptirish va amalga oshirishda nazariy asos, ustuvor yo'nalish bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

Kalitso'zlar: katta ashula, maqom, musiqa, xalq, an'ana, kuy, navo, ohang, cholg'u, janr, uslub, marosim.

В статье рассматриваются роль узбекского музыкального жанра "катта ашула" и его вклад в историю макома и музыкального наследия узбекского средне азиатского музыка знания. Уникальность узбекской классической музыки заключается в том что это выдающийся памятник музыкальной культуры, значение которого выходит за рамки узкоэтических интересов, а её "классичность" для всех и навсегда.

Ключевые слова: музыка, маком, певец, жанр, классика, традиция, система, тембр, школа.

The article examines the role of the Uzbek musical genre "katta ashula" and its contribution to the history of makom and the musical heritage of Uzbek, Central Asian musicology. The uniqueness of Uzbek classical music lies in the fact that it is an outstanding monument of musical culture, the significance of which goes beyond narrowly ethical interests, and its "classicity" is for everyone and forever.

Keywords: music, makom, singer, genre, classics, tradition, system, timbre, school.

Kirish. O'zbek xalqining musiqa madaniyati xalq va professional ijod mahsuli bo'lgan musiqa asarlari og'izdan-og'izga o'tishi asosida asrlar davomida to'plangan an'ana zamiridan rivojlangan. U bizgacha hofizlar, musiqachilar, baxshilar orqali yetib kelgan. Unga xalq ijodining eng yaxshi namunalari, xalq hamda uning professional ijrochilari tomonidan chalingan musiqa kirgan.

Respublikamizda yosh avlod tarbiyasi borasida muhim tadbirlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrda musiqiy qadriyatlarni tiklash, ommaviy halq musiqa pedagogikasi namunalari tahlil etish, buyuk donishmandlarning musiqiy ma'rifiy ijodini, to'plangan boy tajribalarini o'rgatish hamda amaliyotda tadbir etish muhim pedagogik ahamiyatga ega masalalardan biridir.

Sharq mutafakkirlari shaxsning ma'naviy kamoloti uchun muhim bo'lgan axloq-odob masalalari bilan birga musiqa tarbiyasi sohasi bilan ham bevosita shug'ullanib, tarbiyaning busiz boshqalarni to'laqonli amalga oshirib bo'lmashligini uqtirishgan. Ayniqsa, odob-axloq tarbiyasi bilan o'zaro chambarchas bog'liq holda olib borish g'oyasi diqqat markazida bo'lgan. Zero, musiqa sehrining ijobiy ta'siri, tarbiyaviy ahamiyati bolaning yurish-turish, xatti-harakati, insonga va tarbiyaga munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Asosiy qism. Mumtoz ashula – lirik xarakterdagi rivojlangan kuy va shaklga ega bo'lgan yirik aytim - ashula yo'li. Ashula mumtoz musiqaning yetakchi janrlaridan bo'lib, o'zining kuy rivoji, vazmin lirik yoki og'ir xarakteri, hayajonli va dardli mazmuni, diapazon kengligi, usul-ritmining sezilarli darajada murakkabligi va ijro uslubi mukammalligi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz shoirlarning aruz vaznida yozilgan g'azal, ruboiy, muhammaslar ashula janrida keng qo'llanib kelingan. Falsafiy ma'noga ega bo'lgan, shuningdek, alam, ayriliq va hasratni ifodalovchi ishqiy-lirik va ayrim nasihatovchi mazmun ko'proq ashula mavzusiga xosdir. Ashulada so'z va kuy uzviy bog'liqdir, bu holat asarning butun mazmunini, mohiyatini tashkil etadi. Chunki, undagi umumiy mantiqiy bog'liqlik, vazn, qofiya, ohang, musiqiylik tinglovchida zavq-shavq uyg'otadi, hayajonli kayfiyat paydo qiladi. Mumtoz ashulalar musiqiy matnining rivojlanishi hamda kuy tuzilmalarining nisbatan davomliroqligi va kengroq diapazonligi, baland avji mavjudligi bilan xalq ashularidan sezilarli darajada farqlanadi. Ularning rivojlanish jarayoni daromadidan boshlanib tobora avjlangan holda rivojlanadi. Shu tufayli ashula shaklidagi asar mumtoz va bastakorlik ijodiyotlarida keng

o‘rin olgan, uning lokal variantlari mavjud, jumladan, Buxoroda xalq ashula va muhammas, Xorazmda suvora va naqsh, Farg‘ona vodiysida ashula yo‘llari, katta ashula, yovvoyi ashula deb yuritiladi. Bunday ashulalar shaklan va mazmunan yanada murakkabroq va mukammalroq bo‘lib, mumtoz musiqamizning salmoqli qismini tashkil etadi. Bu ashulalar yakkanavoz ijrosida, cholg‘u ansambli jo‘rligida aytilib kelingan. “Adolat tanovari”, “Munojot”, “Girya”, “Adashkanman”, “Yolg‘iz”, “Qomating”, “Qurd”, “Ol xabar” kabi mumtoz yo‘lidagi ashulalar, “Kuygay” (Y.Rajabiy), “Sensan sevarim” (O.Hotamov), “Naylayin” (J.Sultonov), “Ey, chehrasi tobonim” (F.Sodiqov), “Diyorimsan” (K.Jabborov), “Bir ishva bilan” (M.Murtazoyev), “Guluzorim” va “Kurbon o‘lam” (A.Abdurasulov), “Qachon bo‘lgay” (M.Mirzayev) va boshqa bastakorlarning ashulalari xonandalar repertuaridan mustahkam o‘rin olgan. O‘zbek ijrochilik amaliyotida ashula turkumlari ham mavjud, jumladan, “Tanovar I - V”, “Kalandar I - V”, “Eshvoy”, “Kalandari-Samandari”, “Dilxiroj-Sinaxiroj” va boshqalar.

Muhokamalar va natijalar. Katta ashula – Farg‘ona vodiysiga xos yirik ashula yo‘li va o‘ziga xos ijro uslubi. Ikki yoki undan ortiq (beshtagacha) xonanda tomonidan cholg‘u jo‘rligisiz galma-gal aytiladi. Uning asosiy xususiyatlari badihago‘ylik, hamnafaslik, yuqori pardalarda, keng nafasda ijro etilishi, erkin uslubda kuylanishi, so‘z va kuy mutanosibligidir. Baland pardalarda ijro etilishi, katta avjlar mavjudligi, so‘zlarning tinglovchilarga ravon etib borishi va ta’sirchanligi katta ashulaga xos bo‘lib, uning “yovvoyi maqom”, “yovvoyi ashula”, “yakkaxonlik” kabi janrlari mavjud. Katta ashula qadimiy marosim va mehnat qo‘shiqlari, marsiya, navha, ayolg‘u qo‘shiqlari hamda aruz vaznidagi g‘azallarning qadimiy o‘qilish uslublari zaminida vujudga kelgan. Uning o‘tmishdagi namunalari lirik va nasihatamuz g‘azallar bilan bir qatorda diniy, tasavvufiy yo‘nalishdagi she‘rlar ham kuylanadi. A.Navoiy, Lutfiy, Mashrab, Haziniy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Miskin va boshqalarning g‘azallari katta ashula janrida alohida o‘rin olgan. Katta ashula 2009-yilda “Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi Reprezentativ ro‘yxati”ga kiritildi.

Katta ashula ijrochiligi bo‘yicha Erkaqori Karimov, Turdiali Ergashev, Mamatbuva Sattorov, Jo‘raxon Sultonov, Ma‘murjon Uzoqov, Orifxon Hotamov, Boltaboy Rajabov, Orif Alimaxsumov, Fattohxon Mamadaliyev, Odiljon Yusupov bilan Saidnabi Saydaliyev, Hamroqulqori To‘raqulov, Halima Nosirovalar katta shuhrat qozonishgan bo‘lsa, hozirgi kunda Munojot Yo‘lchiyeva, Ismoil va Isroil Vahobovlar, Mahmud Tojiboyev, Xurshid Hasanovlar yuksak mahorat bilan ijro etganlar.

Xulosa. Endilikda milliy musiqa meroslaridan o‘quv tarbiya jarayonida to‘laqonli foydalanish imkoniyati paydo bo‘ldi. Demak, bugungi kunda donishmandlarning musiqiy-ma‘rifiy g‘oyalari, milliy musiqa ta‘lim-tarbiyasi tizimini tarkib toptirish va amalga oshirishda nazariy asos, ustuvor yo‘nalish bo‘lib xizmat qilmog‘i lozim.

Adabiyotlar

1. Matyoqubov O. Maqomot. –Toshkent: “Musika” nashriyoti, 2004.
2. Hamidov H. O‘zbek an‘anaviy qo‘shiqchilik madaniyati tarixi. –T.: “O‘qituvchi”, 1996-yil.
3. Umurzoqov B. “Katta ashula”- Buxoro shashmaqomi: Tarixiy-nazariy va amaliy masalalari mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya. –Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2019-yil.
4. Nurullayev F.G. Musika ta‘limida Buxoro folklor qo‘shiqlarini o‘rgatishning o‘rni va ahamiyati. “Buxoro shashmaqomi: tarixiy nazariy va amaliy masalalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman. –Buxoro, 2019-yil.
5. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.